



INKLYUZIV TA'LIMNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Umbatov To'lagan Abdusattorovich

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. Maqolada inklyuziv ta'larning xalqaro huquqiy asoslari hamda dunyo hamjamiyatidagi inklyuziv maktablar shakllantirish va rivojlantirish yo'lidagi harakatlar, shu harakatlar doirasida imzolangan va yaratilgan qonun hujjatlari, ularning maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun ahamiyati va hozirgi kunda tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, deklaratsiya, konvensiya, ratifikatsiya, huquq, konferensiya, maxsus tarbiyaga muhtoj bola, inklyuziv sinf.

ABSTRACT. The article provides information on the international legal basis of inclusive education and efforts to create and develop inclusive schools in the world community, signed the legal documents and created within the framework of these efforts, their importance for children with special education needs, and their current role.

Key words: inclusive education, declaration, convention, ratification, law, conference, child with special needs, inclusive class.

АННОТАЦИЯ. В статье представлена информация о международно-правовой основе инклюзивного образования и усилиях по созданию и развитию инклюзивных школ в мировом сообществе, о правовых документах, подписанных и созданных в рамках этих усилий, их значении для детей с особыми образовательными потребностями, их современной роли.

Ключевые слова: инклюзивное образование, декларация, конвенция, ратификация, закон, конференция, ребенок с особыми потребностями, инклюзивный класс.

KIRISH



Inklyuziv ta'lism alohida yordamga muhtoj bolalarni boshqa tengdoshlari bilan teng huquqli bo'lib bilim olishlarini ta'minlaydi. Zero Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" da barcha insonlar, xoh sog'lom, xoh maxsus yordamga muhtojlar bo'lsin barcha-barchasi ta'lism olishga haqli ekani, teng huquqli ekanliklari bayon qilingan. Lekin keyinchalik maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar huquqlarini yanada mustahkamlash maqsadida yana bir deklaratsiya qabul qilindi va u "Maxsus tarbiyaga muxtoj shaxslar huquqlari to'g'risida" deb nomlandi. Bu Deklaratsiyada maxsus tarbiyaga muxtoj shaxslar tug'ilgandan boshlab barcha bilan teng huquqli ekanligiga urg'u beriladi.

Shuningdek keyinchalik BMT tomonidan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya imzolanib, 191 davlat tomonidan ratifikatsiya qilindi. Bunda davlatlar o'z zimmasiga bu huquqlarni butun dunyoda amalda qo'lllashni ham vazifa qilib oldi. Aynan mana shu Konvensiya ham maxsus tarbiyaga muxtoj bolalar uchun ham tegishli bo'lib, ularni barcha bilan teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi.

MATERIAL VA USULLAR

Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari jahon miqqosida:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil)
- "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya (1989-yil)
- "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi dekloratsiya (1975-yil)
- "Ta'lism hamma uchun"umumjahon dekloratsiyasi (1990-yil)
- Salamanka Bayonoti (1994-yil)
- Dakar deklaratsiyasi(2000-yil)

"Bolalar huquqlari to'grisida"gi Konvensiya maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar huquqlarini ham kafolatlaydi. «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lism-tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta'kidlangan: «Maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta'lism olishga xar tomonlama yordam berilishi lozim». Bu qoidadan shu narsa ayon bo'ladiki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi, madaniyatga hamoxang bo'lib o'sishi, uning



boyliklaridan, go‘zalligidan baha olib, jamiyatning rivojiga hissa qo‘shishishlarining ahamiyati juda kattadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inklyuziv ta’lim muassasalari hozirgi kundagi holga kelishi uchun juda zalvorli qadamlarni bosib o’tdi. Aynan mana shunday maktablar birinchi bo’lib 1980-1990-yillarda Rossiyada paydo bo’ldi. 1991-yilda Moskvada terapevtik pedagogika markazi va ota-oná jamoat tashkiloti tashabbusi bilan "Ark" inklyuziv ta’limining birinchi maktabi ochildi. 1992 yilning kuzida "maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni integratsiyalashtirish" loyihasi yaratildi, buning natijasida mamlakatning o‘n bir hududida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan bolalarni integratsiyalashgan holda o‘qitish bo‘yicha tajriba maydonchalari tashkil etildi. 1970-1980-yillarga kelib dunyoda kamsitilishga yo‘l qo‘ymaslik g’oyasi aynan maxsus tarbiyaga muxtoj bolalarga qaratilyotgan e’tiborni kuchayishiga sabab bo’ldi. AQSH da 1875 yildan 1914 yilgacha majburiy maktab ta’limi joriy qilingan edi. Shunga muvofiq ravishda aqli zaif hisoblangan va tarbiyasi og‘ir , kar, jismoniy maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun maxsus sinflar tashkil qilingan edi. 1990-yillarda AQSHda barcha maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun talim haqidagi qonun ishlab chiqildi. Avstriyada 1945-yildan boshlab maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni differensial o‘qitish tizimi tashkil etilgan bo‘lib, bu talim tizimida barcha turdagи nuqsonli bolalar o‘qitala boshlandi. 1983-yilda avstriya talim vazirligi inkyuzif talim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu talim modeli 4 ta turga ajratildi: inklyuziv sinflar, hamkorlik qiluvchi sinflar, kichik komplektli maxsus sinflar, yordamchi o‘qituvchilar. 1990-yilda Tailandda o‘ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o’tdi. Bu konferensiyada «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklarasiyasi qabul qilindi. «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155 ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklaratsiyasi maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to‘laqonli, mukammal ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 1994-yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlati va UNESCO yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi

yirik Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur Konferensiya «Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limining kelgusida ijrosini ta’minalash ramkasi» deb atalib, shu yili «Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejas» nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. «Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejas»ning ishlab chiqilishi jahon miqyosida «Ta’lim hamma uchun» mazmunidagi ta’lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitida o‘qitishning yo‘llari belgilab berildi. Ammo bu ta’lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq yondashuv jihatdan asoslash, qatiy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun ham 2000-yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta’lim to‘grisida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan «Dakar harakat dasturi»ni qabul qilganliklari tahlil etildi. Yuqoridagi ushbu qonunlarda nuqsonli bolalarning o‘quv imkoniyatlari asosiy o‘rinda turadi.

XULOSALAR

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar, xalqaro Forum, Konferensiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar jamiyatning tulaqonli va teng huquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta’limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Ushbu ta’lim shakllari inklyuziv va integrasion ta’lim deb ataldi. «Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar xuquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya»ning mazmunidan shu narsani anglash mumkinki, maxsus tarbiyaga muhtoj fuqarolar uchun jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish kafolatlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.



4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.